BOLALAR SHE'RIYATIDA FASLLAR POETIKASI: A. A. MILNE VA QUDDUS MUHAMMADIY IJODI QIYOSIDA

Mahbuba Nusratova Usmonxon qizi,
Qarshi davlat universiteti, Tillar fakulteti,
3-bosqich talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.24273404

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalar she'riyatida fasllar poetikasining badiiy-estetik xususiyatlari ingliz shoiri A. A. Milne va o'zbek bolalar shoiri Quddus Muhammadiy ijodi misolida qiyosiy tahlil qilingan. Unda har ikki ijodkor she'rlarida bahor, yoz, kuz va qish fasllarining tasvirlanishi, tabiat manzaralarining ifodalanishi, o'simliklar, qushlar va boshqa tabiat obrazlarining poetik talqini o'rganildi. Shuningdek, shoirlarning tabiat hodisalarini jonlantirish, obrazlilik, tasviriy vositalar va bolalarcha idrok orqali ifodalash mahoratiga e'tibor qaratilgan. Qiyosiy tahlil asosida ingliz va o'zbek bolalar she'riyatidagi mushtarak jihatlar hamda milliy-madaniy o'ziga xosliklar aniqlandi. Maqola bolalar adabiyotida tabiat va inson munosabatlarining badiiy ifodasini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: bolalar she'riyati, fasllar poetikasi, A. A. Milne, Quddus Muhammadiy, tabiat tasviri, qiyosiy tahlil, badiiy obraz, jonlantirish, milliy xususiyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ художественно-эстетических особенностей поэтики времён года в детской поэзии на примере творчества английского поэта А. А. Милна и узбекского детского поэта Куддуса Мухаммади. Рассматриваются особенности изображения весны, лета, осени и зимы в произведениях обоих авторов, художественное воплощение природных пейзажей, а также поэтическая интерпретация образов растений, птиц и других явлений природы. Особое внимание уделяется использованию олицетворения, художественной образности и выразительных средств, посредством которых поэты передают детское восприятие окружающего мира. На основе сравнительного анализа выявляются общие черты и национально-культурные особенности английской и узбекской детской поэзии. Статья направлена на изучение художественного отражения взаимоотношений человека и природы в детской литературе.

Ключевые слова: детская поэзия, поэтика времён года, А. А. Милн, Куддус Мухаммади, изображение природы, сравнительный анализ, художественный образ, олицетворение, национальные особенности.

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the artistic and aesthetic features of seasonal poetics in children's poetry, focusing on the works of English poet A. A. Milne and Uzbek children's poet Quddus Muhammadi. It explores how spring, summer, autumn, and winter are depicted in their poems, examining the representation of natural landscapes and the poetic interpretation of plants, birds, and other elements of nature. Particular attention is paid to the poets' use of personification, imagery, and expressive literary devices to convey children's perception of the natural world. Through comparative analysis, the article identifies both common features and national-cultural characteristics of English and Uzbek children's poetry. The study aims to explore the artistic representation of the relationship between humans and nature in children's literature.

Keywords: children's poetry, seasonal poetics, A. A. Milne, Quddus Muhammadi, nature imagery, comparative analysis, artistic image, personification, national characteristics.

Bolalar adabiyoti yosh avlodning ma’naviy dunyosi, estetik didi, tafakkuri va atrof-muhitga munosabatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, bolalar she’riyati o‘zining sodda, ravon tili, obrazlarga boyligi, ohangdorligi va ta’sirchanligi bilan bolaning ruhiy olamiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Unda tabiat manzaralari, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, inson va atrof-muhit munosabatlari muhim badiiy mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan yil fasllari tasviri bolalar she’riyatining o‘ziga xos poetik qatlamini tashkil etadi.

Tabiat va uning fasliy o‘zgarishlari insoniyatning badiiy tafakkurida qadimdan muhim o‘rin egallab kelgan. Bahorning uyg‘onishi, yozning iliq va serjilo kunlari, kuzning rang-barang manzaralari hamda qishning sokin tabiati shoirlar uchun turli badiiy obrazlar va ramzlarni yaratish imkonini beradi. Bolalar she’riyatida esa fasllar tasviri nafaqat tabiat go‘zalligini ifodalash, balki bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatga mehr, estetik zavq va ekologik madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Ingliz bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri Alan Alexander Milne o‘z she’rlarida bolalarcha sodda qarash, nozik yumor, tabiat hodisalariga qiziqish va hayotiy kuzatuvlarni o‘ziga xos poetik uslubda ifodalaydi. Uning When We Were Very Young (1924) kabi she’riy to‘plamlarida tabiat manzaralari, bolalik taassurotlari va atrof-muhit bilan bog‘liq obrazlar alohida o‘rin tutadi. Shoir tabiatni bolalar nigohi orqali tasvirlab, oddiy hodisalarga ham o‘zgacha joziba bag‘ishlaydi.

O‘zbek bolalar she’riyatining yirik namoyandasi Quddus Muhammadiy ijodida ham tabiat va yil fasllari muhim mavzulardan hisoblanadi. Shoirning “Bahor meni chaqirar”, “Bahor keldi” va “Bahor ostonasida” kabi she’rlarida bahorning kirib kelishi, tabiatning uyg‘onishi, qushlarning sayrashi, gullarning ochilishi va inson mehnati bilan bog‘liq jarayonlar badiiy ifodasini topgan. Uning she’rlarida tabiat manzaralari nafaqat estetik zavq uyg‘otadi, balki bolalarni mehnatsevarlikka, kuzatuvchanlikka va ona tabiatni qadrlashga undaydi.

A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodini qiyosiy o‘rganish ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatida tabiat tasvirining umumiy hamda o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Har ikki ijodkor tabiat hodisalarini bolalar dunyoqarashiga mos ravishda ifodalasa-da, ularning badiiy yondashuvi, obrazlar tizimi, milliy-madaniy qarashlari va poetik ifoda vositalarida muayyan farqlar kuzatiladi. Xususan, Milne she’rlarida tabiatning bolalar tasavvuri bilan uyg‘unlashgan sodda va jonli manzaralari ko‘zga tashlansa, Quddus Muhammadiy ijodida tabiat tasviri ko‘pincha milliy muhit, xalqona ruh va tarbiyaviy g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatida fasllar poetikasini qiyosiy o‘rganish orqali ikki adabiyot o‘rtasidagi mushtarak badiiy xususiyatlar va milliy o‘ziga xosliklarni ochib berish mumkin. Shuningdek, fasllar tasvirining bolalar estetik tafakkuri, tabiatga munosabati va ma’naviy tarbiyasidagi o‘rnini aniqlash ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodida yil fasllarining poetik talqinini qiyosiy tahlil qilish, tabiat obrazlarining badiiy vazifasini aniqlash hamda har ikki shoirning bolalar she’riyatiga xos uslubiy va estetik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun shoirlar ijodidagi tabiat tasvirlari, fasllar bilan bog‘liq obrazlar, badiiy tasvir vositalari, jonlantirish va o‘xshatish kabi poetik usullar hamda milliy-madaniy xususiyatlarni o‘rganish vazifalari belgilandi.

Maqolada qiyosiy-tipologik, tavsifiy, tahliliy va badiiy matn tahlili metodlaridan foydalaniladi. Tadqiqot obyekti sifatida A. A. Milne va Quddus Muhammadiyning tabiat hamda yil fasllari tasvirlangan bolalar she’rlari tanlangan. Tadqiqot predmeti esa mazkur she’rlarda

fasllar poetikasi, tabiat obrazlari, badiiy ifoda vositalari va ularning qiyosiy xususiyatlaridan iborat.

1.1. A. A. Milne she'riyatida bahor tasviri

Ingliz bolalar she'riyatining o'ziga xos namoyandalaridan biri A. A. Milne ijodida tabiat manzaralari bolalarcha beg'ubor nigoh, kuzatuvchanlik va tasavvur bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Shoirning 1924-yilda nashr etilgan When We Were Very Young she'riy to'plamidagi "Spring Morning" va "Daffadowndilly" asarlari bahor faslining poetik xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.[1]

"Spring Morning" she'rida bahor manzarasi aniq bir joy bilan cheklanmaydi. Lirik qahramon soy bo'yidagi gullar, tepalikdagi qarag'aylar, osmonda suzayotgan bulutlar, maysalar uzra harakatlanayotgan soyalar va qushlarning ovozlari orqali tabiat olamini kashf etadi. She'rning boshlanishidagi "Where am I going? I don't quite know" (Qayerga ketyapman? O'zim ham aniq bilmayman) mazmunidagi savol bolaning erkin tasavvuri va tabiat qo'ynidagi sarguzashtga moyilligini ifodalaydi.[2]

Asarda tabiat obrazlari harakat va tovushlar orqali jonlanadi. Bulutlarning osmonda suzishi, soylarning o'tishi, quzg'unlarning chaqirishi va musichalarning sayrashi bahor tongining jonli poetik manzarasini yaratadi. Ayniqsa, qushlar ovozining insoniy fikrlar bilan uyg'unlashtirilishi tabiat va bola dunyosi o'rtasidagi yaqinlikni kuchaytiradi. Shoir tabiatni oddiy kuzatish obyekti sifatida emas, balki bola suhbatlashishi va undan zavqlanishi mumkin bo'lgan jonli olam sifatida tasvirlaydi.

Milnening "Daffadowndilly" she'rida esa bahor poetikasi bitta gul obrazi orqali ochib beriladi. Shoir sariq nargis gulini yashil libos kiygan, quyoshga yuzlangan va boshini silkitayotgan qizaloqqa o'xshatadi. Gulning harakatlari inson xatti-harakatlari bilan ifodalanishi natijasida jonlantirish san'ati yuzaga keladi. She'rning yakunidagi "Winter is dead" (Qish tugadi) jumlasi bahorning kelishini ramziy va obrazli tarzda ifodalaydi.[3]

Mazkur she'rda ranglar poetikasi ham muhim o'rin tutadi. Sariq rang quyosh nuri va iliqlikni, yashil rang esa yangilanish hamda hayotning qayta uyg'onishini anglatadi. Shu tariqa, Milne murakkab tabiat hodisasini bolalar oson anglaydigan sodda, yorqin va jonli obrazlar yordamida ifodalaydi.

1.2. Quddus Muhammadiy she'riyatida bahor poetikasi

Quddus Muhammadiy ijodida bahor fasli tabiatning uyg'onishi, hayotning yangilanishi, mehnat va bolalik quvonchi bilan chambarchas bog'liq. Shoir bahor manzaralarini tasvirlashda xalqona ifoda, ohangdorlik, jonlantirish va rang-barang tabiat obrazlaridan samarali foydalanadi. Adabiyotshunos Bashorat Jamilova ham Quddus Muhammadiy ijodida fasllar tasviri orqali yosh kitobxonlarda tabiat go'zalligini sevish tuyg'usi shakllanishini, bahor haqidagi she'rlarida esa epitet, o'xshatish va jonlantirish vositalari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.[4]

Shoirning "Bahor meni chaqirar" she'rida bahor insonni tabiat qo'yniga chorlovchi jonli kuch sifatida gavdalanadi. She'rning dastlabki misralaridagi "Bahor meni chaqirar, Anhorda suv hayqirar" tasviri bahorning kelishi bilan tabiatda yuz beradigan o'zgarishlarni ifodalaydi. Anhor suvining "hayqirishi", maysaning imlashi va dala-bog'larning quchoq ochishi jonlantirish san'atining yorqin namunalaridir.

Ayniqsa, she'rda mayin yelning inson bilan suhbatlashishi o'ziga xos poetik yechim hisoblanadi. Shamolning bolani dalaga, lolalarga va bahor sayliga taklif qilishi tabiat hodisasini badiiy obraz darajasiga ko'taradi. Biroq lirik qahramon Erkinning bu taklifni rad etib, darslariga

---

[1] Milne, A. A. *When We Were Very Young*. London: Methuen, 1924, pg.96.
[2] Milne, A. A. "Spring Morning". *When We Were Very Young*, 1924, pg.34-35.
[3] Milne, A. A. "Daffadowndilly". *When We Were Very Young*, 1924, pg.28.
[4] Jamilova, B. *O'zbek bolalar adabiyoti*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020, b.64.

tayyorlanishi she’rga tarbiyaviy mazmun ham bag‘ishlaydi. Natijada asarda tabiat go‘zalligidan zavqlanish va ta’limga mas’uliyat bilan yondashish g‘oyalari o‘zaro uyg‘unlashadi.

“Bahor keldi” she’rida esa bahor faslining kelishi kengroq tabiat manzaralari orqali tasvirlanadi. Turna va g‘ozlarning uchib kelishi, gul g‘unchalarining ochilishi, maysalarning yashnashi, qushlarning sayrashi hamda o‘rik gullarining kumushga qiyoslanishi bahorning rang-barang poetik manzarasini yaratadi. Shoirning “O‘rik gullari kumush” ifodasida o‘xshatish va ramziy rang tasviri mujassamlashgan bo‘lib, gullarning oppoq va nafis ko‘rinishi o‘quvchi tasavvurida jonli gavdalanadi.

Ushbu she’rning muhim xususiyatlaridan biri bahor tasvirining mehnat va ta’lim mavzulari bilan bog‘lanishidir. Shoir bahorni faqat tabiatning uyg‘onish davri sifatida emas, balki inson faoliyati faollashadigan, yangi maqsadlar va vazifalar boshlanadigan fasl sifatida ham talqin qiladi. “Mehnat bahori keldi” misrasi orqali tabiatdagi yangilanish inson hayotidagi faollik bilan uyg‘unlashtiriladi. She’rning yakunida o‘quvchilarning imtihon va sinovlarga tayyorlanishga chaqirilishi uning ma’rifiy-tarbiyaviy yo‘nalishini yanada kuchaytiradi.

“Bahor ostonasida” she’rida esa shoir bahor faslini qish bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlaydi. Asarning “Qor tagida pishillab uxlaydi bahor” misrasi bahorning hali to‘liq namoyon bo‘lmagan, ammo tabiat bag‘rida yashirin ravishda shakllanayotgan holatini ifodalaydi. Bu o‘rinda bahorning uxlayotgan mavjudot sifatida tasvirlanishi jonlantirishning o‘ziga xos namunasidir.

She’r davomida qor va muzning erishi, kurtaklarning uyg‘onishi, binafsha va chuchmomalarining yer yuziga chiqishi, qirlarda lolalarning ochilishi tabiatning bosqichma-bosqich yangilanish jarayonini ko‘rsatadi. Ayniqsa, lola obrazining bayroqqa qiyoslanishi bahor manzarasiga tantanavor ruh bag‘ishlaydi. Shoir tabiatdagi o‘zgarishlarni dehqonchilik va mehnat jarayonlari bilan bog‘lab, inson hamda tabiat o‘rtasidagi uzviy munosabatni ifodalaydi.

Shunday qilib, Quddus Muhammadiyning mazkur uch she’rida bahor turli poetik qirralari bilan namoyon bo‘ladi: “Bahor meni chaqirar”da u insonni tabiat qo‘yniga chorlovchi kuch, “Bahor keldi”da yangilanish va mehnat fasli, “Bahor ostonasida”da esa qishdan bahorga o‘tishning tabiiy jarayoni sifatida gavdalanadi.

1.3. Ikki shoir ijodida bahor poetikasining qiyosiy xususiyatlari

A. A. Milne va Quddus Muhammadiy she’riyatida bahor fasli tasvirini qiyosiy o‘rganish ularning tabiatga munosabati va badiiy ifoda usullaridagi umumiylik hamda farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Birinchidan, har ikki ijodkor bahor manzaralarini bolalar dunyoqarashiga mos ravishda ifodalaydi. Milne gul, bulut, qush va daraxtlar orqali tabiatning sodda va jozibali manzarasini yaratsa, Muhammadiy anhor, mayisa, lola, binafsha, o‘rik gullari va qushlar obrazlari yordamida bahorning kengroq manzarasini gavdalantiradi.

Ikkinchidan, har ikki shoir ijodida jonlantirish muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Milnening “Daffadowndilly” she’rida gul inson singari kiyinadi, boshini silkitadi va qo‘shnisi bilan suhbatlashadi. Muhammadiyning “Bahor meni chaqirar” she’rida esa shamol bolani dalaga chorlaydi, mayisa unga imlaydi, anhor suvi hayqiradi. Demak, ikkala ijodkor ham tabiat hodisalarini insoniy xususiyatlar bilan boyitib, bolalarning tasavvur olamiga yaqinlashtiradi.

Uchinchidan, shoirlarning bahor tasviridagi g‘oyaviy yo‘nalishlarida muayyan farqlar mavjud. Milne she’rlarida tabiatni kuzatish, undan zavqlanish, erkin tasavvur va bolalikning beg‘uborligi yetakchilik qiladi. Quddus Muhammadiy ijodida esa tabiat go‘zalligini ifodalash bilan birga, mehnatsevarlik, bilim olish, tabiatni qadrlash va hayotga faol munosabatda bo‘lish g‘oyalari ham ilgari suriladi. Bu xususiyat Quddus Muhammadiy ijodining badiiy-ma’rifiy va tarbiyaviy yo‘nalishi bilan bog‘liqdir.

To‘rtinchidan, tabiat obrazlarining milliy-madaniy xususiyatlari ham e’tiborga loyiq. Milne she’rlarida ingliz tabiatiga xos nargis gullari, ko‘k qo‘ng‘iroq gullari, qarag‘aylar va qishloq

manzaralari uchrasa, Muhammadiy she’rlarida anhor, lola, binafsha, o‘rik gullari va dala-mehnat manzaralari orqali o‘zbekona tabiat tasviri yuzaga keladi. Bu obrazlar har ikki xalqning tabiat bilan bog‘liq hayotiy tajribasi va estetik qarashlarini aks ettiradi.

Umuman olganda, A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodida bahor fasli bolalik olamining go‘zalligi, tabiatning yangilanishi va hayot quvonchining poetik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq Milne ko‘proq bolaning individual kuzatuvi va tasavvuriga tayanadigan bo‘lsa, Muhammadiy bahor obrazini milliy tabiat manzaralari, xalqona ifoda va tarbiyaviy g‘oyalar bilan boyitadi. Shu jihatdan ikki shoir ijodi o‘zaro mushtaraklik bilan bir qatorda, o‘ziga xos badiiy-estetik xususiyatlarga ham ega.

Bolalar she’riyatida tabiat obrazlari badiiy mazmunni ochib berish, bolalarning estetik dunyoqarashini shakllantirish va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodida tabiat obrazlari o‘ziga xos poetik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular orqali shoirlarning individual uslubi, badiiy mahorati va bolalar ruhiyatini anglash darajasi namoyon bo‘ladi.

A. A. Milne she’riyatida tabiat obrazlari ko‘pincha bolalarning kundalik kuzatuvlari va tasavvurlari bilan uyg‘unlashadi. Shoir gullar, daraxtlar, qushlar, bulutlar va suv kabi tabiiy unsurlardan foydalanib, bolalar uchun tushunarli va qiziqarli badiiy olam yaratadi. Masalan, “Daffadowndilly” she’rida sariq gulning inson qiyofasida tasvirlanishi tabiat va inson o‘rtasidagi obrazli yaqinlikni yuzaga keltiradi. Gulning kiyimi, harakati va tashqi ko‘rinishi inson xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirilgan. Bu usul bolalarda tabiat hodisalarini jonli mavjudot sifatida tasavvur qilish imkonini beradi.

Milnening “Spring Morning” she’rida esa tabiat obrazlari o‘zaro bog‘liq yaxlit manzarani hosil qiladi. Bulutlar, daraxtlar, soylar va qushlar bahor tongining poetik muhitini yaratadi. Shoirning tasvirida tabiat statik manzara emas, balki doimiy harakatdagi jonli olam sifatida gavdalanadi. Bunda tovush va harakat obrazlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qushlarning sayrashi, suvning oqishi va bulutlarning siljishi orqali she’rning musiqiyligi hamda tasviriy ta’sirchanligi kuchayadi.

Quddus Muhammadiy ijodida esa tabiat obrazlari yanada kengroq mazmun doirasiga ega. Shoirning “Bahor meni chaqirar” she’ridagi anhor, mayisa, yel, lola va qushlar obrazlari o‘zbek tabiatining o‘ziga xos manzaralarini aks ettiradi. Ayniqsa, “Imlaydi mayisa qirg‘oq, quchoq ochar dala, bog‘” misralarida tabiat unsurlariga insoniy xususiyatlarning berilishi she’rning obrazlilik darajasini oshiradi. Mayisaning imlashi va dala-bog‘larning quchoq ochishi jonlantirish san’atining ta’sirchan namunalaridir.

“Bahor ostonasida” she’rida esa tabiat obrazlari ramziy va metaforik mazmun bilan boyitilgan. Qor ostida uxlayotgan bahor, uyg‘onayotgan kurtaklar, lola va binafshalar orqali tabiatning yangilanish jarayoni ifodalanadi. Shoir bahor kelishini oddiy fasliy hodisa sifatida emas, balki hayotning qayta jonlanishi va yangi faoliyat boshlanishi sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, lola obrazining bayroqqa qiyoslanishi tabiat manzarasiga milliy ruh va tantanavorlik bag‘ishlaydi.

Ikki shoir ijodida qushlar obrazi ham alohida poetik vazifani bajaradi. Milne she’rlarida qushlarning sayrashi va harakati tabiatning tabiiy ritmini ifodalasa, Muhammadiy ijodida turna, g‘oz va chumchuq kabi qushlar bahorning kelishi, hayotning jonlanishi va tabiatdagi o‘zgarishlarning belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki ijodkor qushlar obrazidan foydalanib, bolalarning tabiat haqidagi tasavvurlarini boyitadi.

Shuningdek, ranglar poetikasi ham ikki shoir ijodidagi muhim mushtarak jihatlardan biridir. Milne asarlarida sariq va yashil ranglar bahor manzarasining asosiy estetik belgilarini tashkil etsa, Muhammadiy she’rlarida oq qor, yashil maysa, sariq lola va kumushdek o‘rik gullari orqali tabiatning rang-barangligi namoyon bo‘ladi. Ranglar nafaqat tashqi ko‘rinishni ifodalaydi, balki yangilanish, go‘zallik, quvonch va hayotiylik kabi tushunchalarni ham anglatadi.

Qiyosiy tahlil natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, A. A. Milne va Quddus Muhammadiy tabiat obrazlarini yaratishda jonlantirish, o‘xshatish, epitet va ranglar poetikasidan samarali foydalanadilar. Biroq Milne ijodida bolalarcha tasavvur va nozik yumor ustuvorlik qilsa, Muhammadiy she’riyatida xalqona ruh, milliy tabiat manzaralari va tarbiyaviy mazmun yetakchilik qiladi. Demak, har ikki shoirning poetik mahorati tabiat obrazlarini bolalar dunyosiga mos ravishda badiiy talqin etishida namoyon bo‘ladi.

Bolalar she’riyatida yil fasllarining badiiy tasviri nafaqat tabiat hodisalarini ifodalash, balki muayyan xalqning turmush tarzi, milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va estetik qarashlarini aks ettirish vositasi ham hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodidagi tabiat manzaralarini qiyosiy o‘rganish ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

A. A. Milne she’riyatida tabiat ko‘pincha bolaning shaxsiy kuzatuvlari, hayratlanishi va erkin tasavvuri orqali namoyon bo‘ladi. Shoir oddiy tabiat hodisalarini bolalar uchun qiziqarli voqelikka aylantiradi. Uning “Spring Morning” she’rida tabiat qo‘ynida sayr qilish, qushlar ovozini tinglash va atrofdagi manzaralarni kuzatish bolaning ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashadi. “Daffadowndilly” she’rida esa bitta gul obrazi orqali bahorning kelishi, tabiatning yangilanishi va go‘zalligi ifodalanadi. Bunday tasvir usuli ingliz bolalar she’riyatiga xos bo‘lgan kundalik hayotiy kuzatuvlar va bolalarcha tasavvurning badiiy ifodasini ko‘rsatadi.

Quddus Muhammadiy ijodida tabiat tasviri milliy muhit va xalqona hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liq. Uning she’rlarida anhorlar, dalalar, bog‘lar, lolalar, o‘rik gullari va mehnat jarayonlari o‘zbek tabiatining o‘ziga xos manzaralarini yaratadi. Masalan, “Bahor meni chaqirar” she’rida anhor suvining hayqirishi, mayisaning imlashi va dala-bog‘larning quchoq ochishi orqali bahorning o‘zbekona poetik manzarasi gavdalanadi. “Bahor keldi” she’rida esa tabiatdagi yangilanish o‘quvchilarning ta’lim jarayoni va mehnatsevarlik tushunchalari bilan uyg‘unlashtiriladi.

Ikki shoir ijodidagi muhim farqlardan biri tabiat tasvirining milliy-madaniy asoslarida namoyon bo‘ladi. Milne she’rlarida ingliz tabiatiga xos o‘simliklar, qishloq manzaralari va tabiiy muhit tasvirlari uchrasa, Muhammadiy ijodida o‘zbek xalqining kundalik turmushi, dehqonchilik an’analari va milliy tabiat manzaralari aks etadi. Bu holat har ikki ijodkorning o‘z milliy adabiy muhiti bilan uzviy aloqada ijod qilganini ko‘rsatadi.

Fasllar tasvirining yana bir muhim jihati ularning tarbiyaviy mazmunidir. Bolalar adabiyotida tabiatga oid she’rlar yosh avlodda atrof-muhitni kuzatish, uning go‘zalligini anglash, o‘simlik va hayvonot dunyosiga mehr bilan munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Milne she’rlarida bu xususiyat ko‘proq tabiatdan zavqlanish, uning go‘zalligini kashf etish va bolalikning beg‘ubor taassurotlari orqali namoyon bo‘ladi.

Quddus Muhammadiy she’riyatida esa tabiatga muhabbat bilan bir qatorda mehnatsevarlik, mas’uliyat va bilim olishga intilish kabi tarbiyaviy g‘oyalar ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan, “Bahor meni chaqirar” she’rida Erkinning tabiat sayliga borish taklifini rad etib, darslariga tayyorlanishi bolalarda vaqtni qadrlash va o‘qishga mas’uliyat bilan yondashish tushunchalarini shakllantiradi. “Bahor keldi” she’rida esa o‘quvchilarning imtihon va sinovlarga tayyor turishga chaqirilishi bahor tasvirining ma’rifiy mazmunini kuchaytiradi.

Shuningdek, ikki ijodkor she’riyatida fasllar inson hayotining turli holatlari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Bahor yangilanish va quvonchni, yoz hayotiy faollik va tabiatning to‘laqonli rivojlanishini, kuz hosil va mehnat samaralarini, qish esa sokinlik va tabiatning o‘ziga xos go‘zalligini ifodalashi mumkin. Bunday poetik qarashlar bolalarga tabiatdagi davriylikni anglash va fasllar almashinuvining hayotdagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodida fasllar poetikasi umumiy estetik maqsad — bolalarda tabiatga mehr va go‘zallikni his etish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq bu maqsadga erishish yo‘llari va badiiy ifoda shakllari turlicha. Milne bolalarcha tasavvur, yumor va nozik kuzatuvlar orqali tabiatni kashf etishga

undasa, Muhammadiy milliy tabiat manzaralari, xalqona obrazlar va tarbiyaviy mazmun orqali yosh kitobxonning dunyoqarashini boyitadi.

Demak, ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatida fasllar tasviri umuminsoniy qadriyatlar hamda milliy-madaniy xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unligini namoyon etadi. Har ikki shoir tabiatni bolalar ma’naviy olamining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning go‘zalligini badiiy so‘z orqali yosh avlodga yetkazadi.

Xulosa. A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodini qiyosiy o‘rganish natijasida ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatida fasllar poetikasi muhim badiiy-estetik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Har ikki shoir tabiat manzaralarini bolalar dunyoqarashi, yosh xususiyatlari va estetik ehtiyojlariga mos ravishda tasvirlab, fasllarning o‘ziga xos go‘zalligi hamda inson hayoti bilan bog‘liq jihatlarini badiiy ifodalagan.

Tadqiqot davomida A. A. Milne she’riyatida tabiat obrazlari, asosan, bolalarcha tasavvur, erkin kuzatuv, nozik yumor va hayrat tuyg‘usi orqali namoyon bo‘lishi kuzatildi. Xususan, “Spring Morning” va “Daffadowndilly” she’rlarida bahor manzaralari, gullar, qushlar va tabiatning uyg‘onishi jonli poetik obrazlar yordamida tasvirlangan. Shoir jonlantirish, ranglar uyg‘unligi va tovush tasviridan foydalanib, bolalar tasavvurida yorqin tabiat manzaralarini shakllantiradi.

Quddus Muhammadiy ijodida esa fasllar poetikasi milliy tabiat manzaralari, xalqona ifoda, mehnat va tarbiyaviy g‘oyalar bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Uning “Bahor meni chaqirar”, “Bahor keldi” va “Bahor ostonasida” she’rlarida bahor fasli tabiatning yangilanishi, insonning mehnat faoliyati va hayotning davomiyligi bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Shoir anhor, mayisa, lola, binafsha, o‘rik gullari va qushlar kabi obrazlar orqali o‘zbek tabiatining betakror manzaralarini yaratadi.

Umuman olganda, A. A. Milne va Quddus Muhammadiy ijodida fasllar poetikasi nafaqat tabiat go‘zalligini aks ettiruvchi badiiy vosita, balki yosh avlodning estetik tafakkuri, ma’naviy dunyosi va atrof-muhitga munosabatini shakllantiruvchi muhim adabiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki shoir ijodi misolida ingliz va o‘zbek bolalar she’riyatida tabiat tasvirining umuminsoniy xususiyatlari hamda milliy-madaniy o‘ziga xosliklari o‘zaro uyg‘unlashgani kuzatiladi.

Mazkur qiyosiy tadqiqot bolalar she’riyatida tabiat va inson munosabatlarini o‘rganish, turli milliy adabiyotlar o‘rtasidagi mushtarak badiiy xususiyatlarni aniqlash hamda fasllar poetikasining estetik va tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqurroq anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milne, A. A. When We Were Very Young. London: Methuen, 1924.
2. Milne, A. A. The House at Pooh Corner. London: Methuen, 1928.
3. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 1-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1974.
4. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1977.
5. Q.Muhammadiy Tabiat alifbesi 3-kitob Yosh gvardiya nashriyoti 1977.
6. Q.Muhammadiy Tanlangan asarlar – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
7. Jamilova, B. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
8. Hamrakulova, X., Abdualimova, M. “Quddus Muhammadiyning ijodiy qiyofasi (Bolalar adabiyotiga chizgilar)”. Eurasian Journal of Academic Research, 2025.